



AKTUAR MOLIYA VA BUXGALTERIYA HISOBI ILMIY JURNALI

Vol. 4 Issue 09 | pp. 14-19 | ISSN: 2181-1865

Available online <https://finance.tsue.uz/index.php/afa>

XIZMATLAR SOHASINI RIVOJLANTIRISHNING O'ZIGA XOS XUSUSIYATLARI VA YO'NALISHLARI



Berdiyev Anvar Abduraxmonovich

Samarqand davlat universiteti tayanch doktoranti

Annotatsiya. Ushbu maqolada xizmatlar sohasini rivojlantirishning o'ziga xos xususiyatlari va alohida jihatlari o'rganilib, mamlakatimizda iqtisodiy faoliyat turlari bo'yicha ko'rsatilgan xizmatlari hajmi va ularning o'sish sur'atlarining o'zgarish tendentsiyalari tahlil qilingan. Shuningdek, xizmatlar sohasini jadal rivojlantirishga qaratilgan islohotlar o'rganilgan hamda xizmatlar sohasini innovatsion vositalar va usullar asosida yanada rivojlantirish hamda sohada iqtisodiy samaradorlikni oshirish bo'yicha takliflar ishlab chiqilgan.

Kalit so'zlar: xizmatlar, xizmatlar sohasi, xizmatlar bozori, xizmat turlari, xizmat ko'rsatish, servis, ijtimoiy xizmatlar.

Kirish

Bugungi kunda mamlakatimiz iqtisodiyotining barcha sohalari kabi xizmatlar sohasining ahamiyati va dolzarbligi oshib bormoqda. Shunday ekan, bu avvalo iqtisodiy jarayonlarning murakkablashishi, bozorning tovarlar bilan to'yinganligi, jamiyat hayotiga yangiliklar kirituvchi fan-texnika taraqqiyoti bilan bog'liq. Bularning barchasi axborot, moliyaviy, transport, konsalting va boshqa turdagi xizmatlar mavjudligini taqozo etadi.

O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2023 yil 11 sentabrdagi "O'zbekiston – 2030" strategiyasi to'g'risida" PF-158-son Farmoni [1] qabul qilindi. Mazkur Farmonda hududlarda xizmatlar sohasini jadal rivojlantirishga alohida e'tibor qaratilib, unda hududlarda xizmat ko'rsatish va servis sohaslarini rivojlantirish orqali xizmat ko'rsatish hajmini 3 baravarga oshirish, o'rta va yirik shaharlar hamda aholisi 300 mingdan ko'p bo'lgan tumanlarda zamonaviy bozor xizmatlari, IT, ta'lim, tibbiyot, yuridik, san'at, turizm, mehmonxona va umumiy ovqatlanish hamda transport xizmatlarini rivojlantirish, shaharsozlik loyihalari asosida zaruriy infratuzilmasi mavjud va aholi gavjum bo'lgan ko'chalarning 233 mingta bo'sh yer maydonlarini auksion savdolariga chiqarish orqali savdo, maishiy, sayilgoh va ko'ngilochar xizmatlarini rivojlantirish, o'rta va yirik shahar markazlarida xizmat ko'rsatishga ixtisoslashgan markaziy ko'chalarni tashkil etish orqali 36 mingta savdo va servis ob'yektlarini tashkil etish, "Yangi O'zbekiston" massivlarida va xalqaro avtomobil yo'llari bo'yida 6 mingta savdo va servis obektlarini qurish, yetakchi loyiha tashkilotlarini jalb qilib, bozorlarni zamonaviy, qulay barcha xavfsizlik talablariga javob beradigan savdo komplekslariga aylantirish kabi qator vazifalar belgilab berildi.

Albatta, ushbu vazifalarni bajarish xizmatlar sohasini innovatsion rivojlantirish va soha korxonalari samaradorligini oshirish bo'yicha chuqur hamda keng qamrovli ilmiy tadqiqot ishlarini olib borishni taqozo etadi. Bu esa mazkur tadqiqot mavzuning dolzarbligini ifodalaydi.

Mavzuga oid adabiyotlar tahlili

Ta'kidlash joizki, xizmat – bu mahsulotning foydali harakati yoki insonning o'ziga xos, oqilona ehtiyojlarini qondirish uchun faoliyat shaklida namoyon bo'ladigan, foydalanish qiymatlarini yaratadigan mehnat natijalari bo'yicha paydo bo'ladigan iqtisodiy munosabatlardir [2]. Shuning uchun xizmat ko'rsatish jarayoni iste'molchilarga xizmatlarni yetkazib berish jarayoni, ya'ni unga har qanday shakldagi jismoniy va yuridik shaxslarning ehtiyojlarini qondirish jarayoni sifatida qaralishi kerak.

Yu.Meleshkoning fikricha, XX asr oxiri XXI asr boshlari iqtisodiyotidagi eng yorqin tendentsiyalardan biri xizmat ko'rsatish sohasining yuqori sur'atlarda rivojlanishi hisoblanadi. Sanoat ishlab chiqarishi – asosi XVIII asrning oxiridan boshlab mamlakatlarning muvaffaqiyatli iqtisodiy rivojlanishi o'z o'rnini xizmat ko'rsatish sohasiga bo'shatib berdi, shu sababli jahon iqtisodiyotida sanoat inqilobi bilan taqqoslanadigan tarkibiy qayta qurish sodir bo'ldi. Bugungi kunda xizmat ko'rsatish sohasining rivojlanish darajasi davlatning ijtimoiy-iqtisodiy rivojlanishining mezoniga aylandi [3].

M.Kastels esa iqtisodiyotining axborot va axborotlashtirish bilan bog'lik xususiyatlariga e'tibor berib, xizmatlarni yangicha tavsifga egaligi va xizmatlarni ko'rsatishda faoliyatning yangi ko'rinishlarini tadqiq etgan. Uning fikricha, xizmatlar kategoriyasi tarixan turli xil ijtimoiy tuzilmalar va ishlab chiqarish tizimlaridan shakllanib kelayotgan faoliyatni o'z ichiga oladi [4].

A.Mapshallning fikricha, xizmatlarni mehnatning nomoddiy, sezgi organlari vositasida ilg'ab bo'lmaydigan natijalari sifatida talqin qilgan. Ya'ni, barcha ne'matlarni moddiy va nomoddiy ne'matlarga bo'lar ekan, ularning barchasi mamlakatdagi ijtimoiy boylikni shakllantirishda birday muhim ekanligini isbotlashga alohida e'tibop qaratgan. U birinchi bo'lib, insonning hayot faoliyatida va ehtiyojini qondirishida moddiy ne'matning o'ta muhim va zarur ekanligini e'tirof etish bilan bir qatorda, kuz bilan ilg'ab bo'lmaydigan turli nomoddiy ne'matlar va xizmatlarning ham katta ahamiyati borligini ilmiy jihatdan asoslab bergan [5].

Kristofer Lavlok xizmatlar ta'rifini berish bo'yicha quyidagi ikki yondashuvni taklif etadi [6]:

– xizmatlar – bir tomondan ikkinchi tomonga taklif etiladigan harakat yoki jarayondir. Ushbu jarayonni amalga oshirishda fizik obektlar (tovarlar) ishtirok etishiga qaramasdan, u his qilib bo'lmaslik xarakteriga ega va bunda biror-bir narsaga egalik qilishga olib kelmaydi;

– xizmatlar – iqtisodiy faoliyat turi bo'lib, qimmatliklar yaratadi va aniq vaqt va aniq joyda xizmatlarni olishga qaratilgan his qilib bo'ladigan va his qilib bo'lmaydigan xarakter natijasida iste'molchilarga ma'lum bir ustunliklarni ta'minlaydi.

Tadqiqot metodologiyasi

Tadqiqotni amalga oshirishda mavzu bo'yicha xorijiy olimlar tadqiqotlari chuqur o'rganilgan. Amaliy tahlillarda rasmiy statistik ma'lumotlar hamda statistik kuzatish,

taqqoslama tahlil, sintez, mantiqiy fikrlash statistik jadval, solishtirma tahlil kabi usullardan foydalanilgan.

Tahlil va natijalar

Hozirgi kunda iqtisodiyotni yuksaltirish muammolarini hal etishda tovar va xizmatlar bozori alohida o'rin tutadi. Aynan, tovar va xizmatlar bozori, ularning samarali faoliyat ko'rsatishi, bir tomondan iste'molchilar, ya'ni aholi turmush darajasi va sifatini oshirishning muhim vositasi bo'lsa, ikkinchi tomondan ushbu tovar va xizmatlarni ishlab chiqaruvchi subektlarning doimiy, uzluksiz faoliyat yuritishi, kengaytirilgan takror ishlab chiqarishni amalga oshirish uchun barcha zarur sharoitlarni yaratib beradi. Aholining turli-tuman tovar va xizmatlarga bo'lgan hamda tobora o'sib va kengayib borayotgan ehtiyojlarini imkon qadar to'laroq qondirish mamlakatimizda izchillik bilan olib borilayotgan ijtimoiy-iqtisodiy siyosatning ustuvor vazifasi hisoblanadi [6].

Xizmatlar bozorining farqlanadigan asosiy jihatlari quyidagilar:

1. Xizmatlarni joylashtirishning mavjudligi va osonligi;
2. Rivojlangan bozor talablariga javob berishi va alohida xizmatlarni iqtisodiy faoliyat va bashorat qilishning murakkabligi;
3. Zamonaviylashishi va xizmatlarga bo'lgan e'tiborning kengayishi;
4. Aholi guruhlarining faoliyatga tez moslashuvchanligi;
5. Yuqori foyda olish imkoniyati.

Tahlillarga ko'ra, respublika bo'yicha yaratilgan xizmatlar hajmi 470286,5 mlrd.so'mni tashkil etib, aholi jon boshiga xizmatlar hajmi 12915,6 ming so'mni tashkil qilgan. 2023-yil yakunlariga ko'ra, YaIM tarkibida xizmatlar sohasining ulushi 41,6 foizdan 43,4 foizga oshganligini kuzatish mumkin. Shu bilan birga, qishloq, o'rmon va baliqchilik xo'jaligining ulushi 24,9 foizdan 24,3 foizga, sanoatning ulushi 27,0 foizdan 26,1 foizga, qurilish tarmog'ining ulushi 6,5 foizdan 6,2 foizga kamayganligi qayt etilgan.

2019-2023 yillar davomida ko'rsatilgan bozor xizmatlari umumiy hajmi 13,7 foizga o'sgan bo'lib, jumladan moliyaviy xizmatlar 4,5 foizga, savdo xizmatlari 2,5 foizga, transport xizmatlari 1,8 foizga, boshqa xizmatlar 1,8 foizga, aloqa va axborotlashtirish xizmatlari 1,6 foizga, ta'lim sohasidagi xizmatlar 1,0 foizga va yashash va ovqatlanish xizmatlari 0,5 foizga oshgani, ya'ni shu davrlar oralig'ida bu ko'rsatkich. Bu ko'rsatkichlarni, ya'ni ko'rsatilgan bozor xizmatlarining o'sishini 2023-yilda 2022-yilga nisbatan savdo xizmatlarining 23,5 foizga o'sishi, transport xizmatlari 23,1 foizga, moliyaviy xizmatlar 22,6 foizga, aloqa va axborotlashtirish xizmatlari 6,9 foizga, ta'lim xizmatlari 4,3 foizga, yashash va ovqatlanish xizmatlari 3,9 foizga, shuningdek, ko'chmas mulk bilan bog'liq xizmatlar 2,6 foizga, sog'liqni saqlash sohasidagi xizmatlar 1,8 foizga, ijara xizmatlari 1,6 foizga, me'morchilik, muhandislik izlanishlari, texnik sinovlar va tahlil sohasidagi xizmatlar 1,7 foizga va boshqa xizmatlar 4,2 foizni tashkil etgan.

1-jadval

O'zbekistonda iqtisodiy faoliyat turlari bo'yicha ko'rsatilgan xizmatlari hajmi va ularning o'sish sur'atlari¹

Xizmatlar	Xizmatlar hajmi, mlrd. so'm	Ulushi, %	O'sish sur'ati,
-----------	-----------------------------	-----------	-----------------

¹ O'zbekiston Respublikasi Prezidenti huzuridagi Statistika agentligi ma'lumotlari.

	2022-yil	2023-yil		%
Xizmatlar – jami	357 554,5	470 286,5	100,0	113,7
<i>shundan:</i>				
aloqa va axborotlashtirish xizmatlari	22 917,6	32 226,6	6,9	124,6
moliyaviy xizmatlar	80 431,0	106 363,8	22,6	120,6
transport xizmatlari	81 006,6	108 477,7	23,1	108,0
<i>shu jumladan:</i>				
avtotransport xizmatlari	41 318,3	51 272,7	10,9	108,4
yashash va ovqatlanish xizmatlari	11 322,8	18 327,3	3,9	112,6
savdo xizmatlari	88 847,9	110 662,4	23,5	110,2
ko'chmas mulk bilan bog'liq xizmatlar	9 674,3	12 064,3	2,6	113,3
ta'lim sohasidagi xizmatlar	15 395,7	20 418,4	4,3	122,8
sog'liqni saqlash sohasidagi xizmatlar	6 384,2	8 441,2	1,8	111,6
ijara xizmatlari	6 444,3	7 542,6	1,6	105,2
kompyuterlar va maishiy tovarlarni ta'mirlash bo'yicha xizmatlar	5 842,3	7 021,5	1,5	106,6
shaxsiy xizmatlar	8 713,9	10 916,0	2,3	106,3
me'morchilik, muhandislik izlanishlari, texnik sinovlar va tahlil sohasidagi xizmatlar	7 338,2	7 959,7	1,7	100,2
boshqa xizmatlar	13 235,7	19 865,0	4,2	120,6

Xizmatlar sohasi bugungi kunda, zamonaviy sharoitlarda milliy iqtisodiyotning bajaruvchi tarmoqlarini o'z ichiga olib, moddiy va nomoddiy ishlab chiqarishning ajralmas qismi, aholining o'ziga xos ijtimoiy-madaniy, moddiy-maishiy ehtiyojlarini qondirish uchun xizmat ko'rsatadigan muhim soha bo'lib, u iqtisodiyotning ta'lim, sog'liqni saqlash, madaniyat va san'at, jismoniy tarbiya va sport, aholiga maishiy xizmat ko'rsatish, uy-joy kommunal xo'jaligi, ijtimoiy ta'minot, savdo va umumiy ovqatlanish, yo'lovchi transporti, ijtimoiy turizm va boshqa ko'plab tarmoqlarini o'z ichiga oladi.

Ayniqsa, ijtimoiy xizmatlar sohasining iqtisodiy roli g'oyat muhim hisoblanib, ijtimoiy ishlab chiqarish tizimida aholiga ma'naviy ne'matlarni ishlab chiqarishdan iborat bo'lgan tarmoqlar, tarmoq bo'g'inlari va faoliyat turlarining majmuasidir. Ijtimoiy xizmatlar sohasini rivojlantirish orqali aholining yashash sharoitlarini yanada yaxshilash, turmush darajasini oshirish va qulay shart-sharoitlarni ta'minlashga erishish maqsad qilib qo'yiladi. Insonlarning moddiy va ma'naviy hayoti darajasini oshirishga, turmush tarzini yaxshilash va takomillashtirishda ijtimoiy xizmatlar sohasi muhim o'rin tutadi.

Ma'lumki, xizmatlar sohasining rivojlanishida kichik biznesning hissasi ortishi servis va xizmatlar sohasi tarmoqlari rivojida muhim omillardan biriga aylandi. Bu sohada kichik korxonalar va mikrofirmalar uchun kreditlash va imtiyozli soliqqa tortish biznesni rivojlantirish va xizmatlarni kengaytirish uchun rag'bat bo'ldi. Yalpi ichki mahsulot tarkibida tadbirkorlikning ijobiy va yuqori bo'lishi avvalo, tadbirkorlik faoliyati orqali

tovar va xizmatlar bozorining yanada faollashayotganligi, uning talab va taklif asosida tartibda solinishi hamda bozor mexanizmining yaxshi tuzilganligidadir.

Xulosa va takliflar

Tadqiqotdan kelib chiqib, xizmat ko'rsatish sohasini yanada rivojlantirish maqsadida quyidagilarni e'tiborga olish zarur:

1. Xizmat ko'rsatishning zamonaviy bozor xizmatlari ko'lamini kengaytirish, yangi-yangi xizmat turlarini joriy etish orqali sohada raqobatbardosh muhitni yaratish hamda sohaning mamlakat milliy iqtisodiyotidagi ulushini keskin oshirish orqali xizmatlar sohasining samapadorligini yanada oshirish va xizmatlar sohasini iqtisodiyotning drayveriga aylantirish;

2. Milliy iqtisodiyotda raqobatbardosh xizmatlar ko'rsatishni ta'minlaydigan zamonaviy yuqori samarali innovatsion texnik vositalar va texnologiyalar bilan ta'minlangan xizmat ko'rsatish tizimini kengaytirish va yangilarini barpo etish;

3. O'z mablag'lari hisobidan ijtimoiy xizmatlar ko'rsatmoqchi bo'layotgan tadbirkorlarni qo'llab-quvvatlash, ilg'or tadbirkorlik g'oyalari ega bo'lganlarning fikrini o'rganish va zamonaviy ijtimoiy xizmatlar haqidagi bilimlar bazasini kengaytirish;

4. Bugungi talabga javob beradigan, ya'ni bozorning konyukturasiga tez moslasha oladigan, ijtimoiy xizmatlar ko'rsatish hajmi bo'yicha uncha katta bo'lmagan korxonalar barpo etishga alohida e'tibor qaratish;

5. Xizmat ko'rsatishda davlat sektorida faoliyat ko'rsatayotgan rahbar xodimlarning tadbirkorlik bilimlarini oshirish va byudjetdan tashqari moliyalashtirish tizimini kengaytirish;

6. Aholining turar joylarga, maishiy xizmat ko'rsatish, savdo va umumiy ovqatlanish korxonalarining xizmatlariga hamda madaniyat, san'at, sport va boshqa shu kabi ijtimoiy xizmatlarga bo'lgan talablarini muntazam e'tiborga olib borish zarur;

7. Talab yuqori xizmatlarni rivojlantirish, chekka hududlarning internet bilan ta'minlanganlik darajasini oshirish va sifat ko'rsatkichlarini yaxshilash, yo'l bo'yi xizmat ko'rsatish infratuzilmalarini zamonaviy talablarga moslashtirish, bo'sh turgan bino va yerlardan samapali foydalanish maqsadida ushbu sohaga xorijiy investorlarni va xususiy sektorni keng jalb qilish hamda ulap faoliyatini kengaytirish kabilar shular jumlasidan.

Xulosa sifatida ta'kidlash joizki, xizmatlar sohasi davlatlar iqtisodiyotining eng muhim tarmoqlaridan biri hisoblanadi. Ushbu tarmoq an'anaviy faoliyat bilan cheklanib qolmaydi, u jamiyat hayotida o'z ishtirokini doimiy ravishda kengaytirib boradi, ijtimoiy ishlab chiqarishga integratsiyalashgan, shuningdek, iqtisodiyotning deyarli barcha sohalari bilan o'ziga xos aloqalar orqali bog'langan. Demak, xizmatlar sohasini innovatsion vositalar va usullar asosida yanada rivojlantirish hamda sohada iqtisodiy samaradorlikni oshirish nafaqat sohaning rivojiga, balki, iqtisodiyotning barcha tarmoqlari rivojiga hamda bu orqali alohi bandligi va turmush tarzining yaxshilanishiga olib keladi.

Foydalanilgan adabiyotlar ro'yhati:

1. O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2023-yil 11-sentabrdagi "O'zbekiston – 2030" strategiyasi to'g'risida" PF-158-son Farmoni.

2. Ernazarov G.B. “Yangi O‘zbekistonning iqtisodiy rivojlanish davrida xizmat ko‘rsatish sohasining o‘rni va ahamiyati, uning iqtisodiy-statistik tahlili va istiqbollari” maqola TDIU: Iqtisodiyot va ta’lim jurnali 2024-yil No1.

3. Мелешко Ю.В. Трансформация определения понятия «услуг» в контексте концепции постиндустриального общества // Россия: Интернет-журнал “Экономическая наука сегодня” №4. 2016г. ст.67-71

4. Кастельс М. Информационная эпоха: Экономика, общество и культура: Пер. с англ. Под. ред. О.И. Шкаратана - М. : ГУВШЭ, 2000г. Ст. 175

5. Альфред Маршалл. Принципы экономической науки. -М.: «Прогресс». 1993г. Ст.245

6. Кристофер Лавлок. Маркетинг услуг: Персонал, технологии, стратегия, 4-е изд.: пер. с англ. – М.: Издательский дом «Вильямс», 2005. -34-б.

7. Bobanazarova J.X., Azamatova G.B. Xizmat ko‘rsatish sohasini rivojlantirish aholi farovonligining iqtisodiy asosidir // “Iqtisodiyot va innovatsion texnologiyalar” ilmiy elektron jurnali. № 3, may-iyun, 2017 yil

8. <https://www.stat.uz>

9. <https://lex.uz>

Copyright © 2024 by the authors. This work is licensed under a Creative Commons Attribution- 4.0 International License (CC - BY 4.0)

